

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“Tasdiqlayman”
O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat
instituti rektori**



N.B. Sayfullayev
2025-y

“Kelishildi”

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



12 iyun 2025-y

“Kelishildi”

**O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**



“14” iyun 2025-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211700-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik)
ta'lim yo'nalishi uchun**

1. “Doston ijrochiligi (baxshichlik)” fani
2. “Musika adabiyoti va nazariyasi” fani

Toshkent-2025

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2025-yil 30 - may 10 -sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI
"Doston ijrochiligi" kafedrası professor v.b.
Filologiya fanlari nomzodi, O.M.Axmedova

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI
"Doston ijrochiligi" kafedrası mudiri v.b.
Z.S.Hayitov

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI
"Doston ijrochiligi" kafedrası dotsenti
v.b B.N Safarov

Taqrizchi:

O'zDSMI "Folklor va etnografiya"
kafedrası professori O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan artist R.Abdullayev

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI
"Doston ijrochiligi" kafedrası dotsenti
A.Sunnatillayev

Kirish

60211700-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha "Ixtisoslik"dan 1-ijodiy imtihon dasturi va 2-ijodiy fan "Musika adabiyoti va nazariyasi"dan ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha hujjat topshirgan abituriyentlar doston ijro qilish, badihago'ylik, soz chalish ko'nikmasiga ega bo'lishlari kerak. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Hududlarda faoliyat olib borayotgan Bolalar musiqa va san'at maktablari hamda Baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab internatlarda "Baxshichilik va doston ijrochiligi" yo'nalishini mutaxassislar bilan teng ta'minlash, hududlar aro kadrlarni taqsimlashda muvozanatni saqlash maqsadida 2025/2026 o'quv-yilidan boshlab institut Kengashining qarori bilan 60211700-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalishining qabul jarayoniga quyidagi o'zgarishlar kiritildi, unga ko'ra:

1. Qoraqalpoq yo'nalishi baxshilari va jirovlari uchun – 5 nafar
2. Xorazm yo'nalishi baxshilari uchun – 5 nafar (Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlaridan, ochiq ovoz)
3. Surxondaryo-Qashqadaryo yo'nalishi baxshilari uchun – 10 nafar (Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Farg'ona vodiysi hududidan, ichki ovoz) abiturentlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

"Ixtisoslik"dan ijodiy imtihon maqsadi va vazifalari

60211700 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, ijodiy qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi hisobga olingan tarzda me'yoriy dastur asosida baholanadi.

"Doston ijrochiligi (baxshichilik)" fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifa - abituriyentlar doston kuylash mahoratiga ega bo'lganliklari hamda o'z ijrolarida so'z va soz uyg'unligini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e'tibor professional darajali ijroni yuqori badiiy saviyada ko'rsatib berishga qaratilishi kerak. "Doston ijrochiligi (baxshichilik)" fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni baxshichilik sohasida olib borilayotgan ishlarni teran anglay oladigan, baxshichilik tarixi, ijrochilik jarayonidagi o'zgarishlar haqida fikr yuritish bilan birga, madaniyat va san'at sohasida olib borilayotgan jarayonlar haqida tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

60211700-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

O'qishga kiruvchi 30 daqiqagacha bo'lgan vaqt mobaynida ijro dasturi (o'zbek xalq dostonidan parcha, terma, nag'ma) ni ijro etib berishi talab etiladi.

Ijro dasturi

60211700-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro'yxat asosida yakka tarzda ijodiy imtihon topshiradilar.

Abituriyent Surxondaryo-Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm, Qoraqalpoq dostonchilik maktablariga xos bo'lgan tanlangan dostondan parchani talab darajasida (sof kuylash, temp va usulni his qilish, asarga badiiy yondashish, diksiya, hududga xos shevada ijro etish) kuy shtrixlarini to'g'ri qo'llagan holda, intonatsiya sofliğiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ochib bergan holatda kuylab berishi zarur. Komissiya taklifiga ko'ra abituriyent terma ijrosi orqali o'z badihago'ylik san'atini namoyish etishi asosiy ahamiyatga ega.

Taxminiy ijro dasturi ro'yxati

O'zbek xalq dostonlaridan biri. Masalan: "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkum dostonlari, "Oshiq G'arib va Shoxsanam", "Rustamxon", "Kuntug'mish" va boshqalar.

Ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Ijro dasturining (nasr, nazm, kuy-noma) barcha talablar asosida shakllanganligi	18.0 ballgacha
2.	Ovoz va cholg'u ijrosining uyg'unligi (tovush tembri sofliğı)	9.0 ballgacha
3.	Matnlarni so'z vositasida ifodalash jarayoni va baxshi ijrosi davrida aktyorlik mahorati	9.0 ballgacha
4.	Dostonidan tanlangan parchani ijro etishda badihago'ylik	18.0 ballgacha
5.	Berilgan mavzuda badiha asosida terma ijro eta bilish	9.0 ballgacha
6.	Ovozni ishlatishda hududiy an'analarga rioya qilinishi	5.0 ballgacha
7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	5.0 ballgacha
8.	Sahna madaniyati	10.0 ballgacha
9.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	5.0 ballgacha
10.	Intonatsiya sofliğı	5.0 ballgacha
Jami:		93,0

Ijro dasturi bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **93 ball**

“Musiqi adabiyoti va nazariyasi”

a) “Musiqi nazariyasi”

Musiqi nazariyasi fanidan abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

- musiqiy-nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- nazariy tushunchalar asosida garmonik tuzilmalar va intervallar tuzish;
- berilgan interval va akkordlarni aniqlash va tegishli tonalliklarga yechish;
- musiqiy-nazariy tilning barcha tarkibiy qismlarini bilish va amaliyotda qo‘llash;
- musiqiy-nazariy atamalarni bilish.

Abituriyent “Musiqi nazariyasi” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lgan holda, og‘zaki topshiriqlarni xatosiz bajarganda, musiqiy-nazariy qonuniyatlarni tahlil qilish, musiqiy-nazariy va amaliy ko‘nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo‘yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo‘lganida baholanadilar.

Musiqi nazariyasi fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG‘ZAKI:

BAHOLASH MEZONI:

№	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	Berilgan tovushdan major, minor ladlarining uch xil turi va xalq lادلarni tuzish	10,0 ballgacha
2.	Berilgan tovushdan ko‘rsatilgan diatonik va xromatik intervallarni tuzish, ularni tonalligini aniqlash va yechish	10,0 ballgacha
3.	Berilgan tovushdan ko‘rsatilgan akkordlarni tuzish va ularni tonalligini aniqlash va yechish	13,0 ballgacha
Jami:		33,0

“Musiqi nazariyasi” bo‘yicha abituriyentlarning to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – 33,0 ball.

b) “Musiqi adabiyoti”

Kollokvium tarzidagi suhbatdan abituriyentning “Musiqi adabiyoti” fanidan jahon, rus, o‘zbek musiqasi tarixiga oid savollarga javob berishi, topshirgan yo‘nalishi tarixi haqida bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi. Og‘zaki ravishda savollar mazmun-mohiyatini ochib berish talab etiladi.

BAHOLASH MEZONI

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	O'zbek musiqasi tarixidan savollarga javob	10,0 ballgacha
2.	Rus musiqa adabiyoti dan savollarga javob	10,0 ballgacha
3.	Chet el musiqa adabiyotidan savollarga javob	10, ballgacha
Jami:		30,0

“Musiqqa adabiyoti” bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **30,0 ball**.

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy-ijodiy (og'zaki) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60211700-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda va tartibda 1 akademik soat vaqt davomida “Doston ijrochiligi (baxshichilik)” fanidan ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi, bo'yicha imtihonni qabul qilib oladi.

Ixtisoslik fanidan ijodiy imtihonlarda qatnashmagan abituriyentlar keyingi sinovlarga kiritilmaydi.

Apellatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin.

Murojaat mazmuni faqat o'zining ballari yuzasidan bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi: o'quv qo'llanma / Mas'ul muh.: fil.f.d., prof. H.Boltaboev. Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2010. – 248 b.

2. Mirzayev T., Turdimov Sh., M.Jo'rayev., J.Eshonqulov., A.Tilovov. O'zbek folklori: darslik / Mas'ul muh. Fil.f.n., dots. O.Madaev. Toshkent: “Tafakkur bo'stoni”, 2020. - 240 b.

3. Hayitov Z. Doston ijrochiligi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent:, 2021.

4. Иброҳимов. О. Ўзбек халқ музыка ижоди. Тошкент, 1994.

5. Ayxodjayeva Sh., Ergasheva Ch., Zokirov A. O'zbek musiqasi tarixi. Darslik. Toshkent, 2021.

6. Русская музыкальная литература. Учебное пособие. Составитель: Фрид. Э.Л. Ленинград, «Музыка», 1984.

7. Кандитский.А. История русской музыки. Москва-1979.

8. Tursunova R., Tursunova G., Jahon musiqa tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2017.